

Qumqo'rg'onda mavsum ilg'orlari taqdirlandi



Tadbirda so'zga chiqqan Surxondaryo viloyati hokimi To'ra Bobolov erishilgan bu ulkan yutuq zahirida qumqo'rg'onliklarning g'ayrat-shijoati, mirishkorlik fazilatlarini mujassam ekanligini ta'kidlab, klaster, fermerlar, ularga yordam bergan korxona va tashkilotlar, tumanning barcha mehnatkashlariga minnatdorchilik bildirdi.

Joriy yilda tumanda "Termiz-Jayhun" klasteri hamda 133 ta fermer xo'jaligi tomonidan 7 ming 952 gektar yer maydoniga chigit ekilib, 27 ming 470 tonnadan ortiq paxta xirmoni bunyod etildi.

Tadbirda mavsumda faollik ko'rsatgan mehnat faxriylari, klaster va fermer xo'jaliklari rahbarlariga esdalik sovg'alari topshirildi. San'atkorlar ijrosidagi kuy-qo'shiqlar bayram dasturxoniga o'zgacha shukuh bag'ishladi.